ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

МУНДАРИЖА

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya 72

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida) 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий 80

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 85

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him 88

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 93

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 97

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 100

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang 103

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 106

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida) 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BUYUK SHOIR XOTIRASIGA MUNOSIB HAYKAL

Заматов Shomat,
Termiz davlat universiteti falsafa kafedrasi professori,
falsafa fanlari doktori

Xo'janova Ozoda,
Termiz davlat universiteti rus va jahon adabiyoti kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ushbu maqola iqtidorli ijodkor, falsafa fanlari nomzodi, Termiz davlat universiteti dotsenti Norali Berdiyev ko'p yillardan buyon ilmiy-pedagogik faoliyat olib borish, o'zbek va rus tillarida she'rlar yozish bilan birgalikda har ikkala tilda badiiy tarjimachilik bilan ham faol shug'ullanib kelayotganligiga bag'ishlanadi. Ijodkorning «Iqror» (Guliston, «Ziyo», 2005), «Shukrona» (Qarshi, «Nasaf», 2006) va «Dunyo o'ylari» (Qarshi, «Nasaf», 2009) to'plamlariga A.S. Pushkin, M.Yu.Lermontov va S.A.Yesenin she'rlarining rus tilidan o'zbek tiliga tarjimalari kiritilgan. Binobarin, «Dunyo o'ylari» to'plamidan A.S.Pushkinning 89 ta, M.Yu.Lermontovning 6 ta, S.A.Yeseninning 15 ta she'rlardan iborat mashhur «Fors taronalari» she'riy turkumining tarjimalari o'rin olgan. Shoirning «Лучший подарок» («Eng yaxshi sovg'a», Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2003) va «Песнь соловья» («Bulbul navosi», Qarshi, «Nasaf», 2009) to'plamlariga esa o'zbekchadan ruschaga tarjimalari jamlangan. Jumladan, «Песнь соловья» to'plamida Atoiyning mashhur «Ul sanamki suv yoqasinda paritek o'lturur» matla'li mashhur g'azali, Alisher Navoiyning 10 ta g'azallari, 26 ta qit'alari, 15 ta ruboiylari, 9 ta tuyuqlari, 40 ta fardlari, G'afur G'ulomning «Go'zallik nimada?» va «Vaqt» she'rlarining ruschaga tarjimalari chop etilgan.

Ayniqsa, N.Berdiyevning buyuk rus yozuvchisi Aleksandr Sergeyevich Pushkin ijodiga ixlosi baland. Tarjimon buyuk Pushkin xotirasiga o'zining zo'r samimiyatini quyidagi onegincha satrlarida bayon etgan:

Yozib o'lmas asarlar Pushkin,
Zabt etgandi yurtlar, ellarni.
Yo'qotmasdan ular o'z kuchin,
Quvontirar hanuz dillarni.
«Rus she'rining porloq quyoshi»
O'zbekning-da bo'ldi yo'ldoshi:
Chiqib qancha mohir tarjimon,
Etishdilar tanish, qadrdon
Buyuk adib merosin elga.
Navoiy-la yonma-yon, hamdam
Qalbimizda yashar Pushkin ham,
Shon-shuhrati qoplandi gulga.
Bitib taqlid, qilib tarjima,
Pushkin ruhin yodlar kamina.

N.Berdiyev buyuk Pushkinning porloq xotirasiga samimiy ixlosi samarasi sifatida 2000–2025-yillar mobaynida uning 363 ta asarlarini o'zbek tiliga o'girishga muvaffaq bo'lgan. Bu tarjimalarning 2025-yilda Termiz davlat universiteti nashriyotida «Haykal» nomli to'plam holida nashr etilishi nafaqat tarjimon, balki kitobxonlar uchun ham quvonchli voqea bo'ldi.

To'plamga kiritilgan Pushkinning 108 ta she'rlari, «Yevgeniy Onegin»ning IX–X boblari, «Qaroqchi birodarlar», «Tazit» poemalari, «Shoh Nikita va uning qirq qizlari», «Ona ayiq haqida ertak», «Xatlardagi roman», «O'lat vaqtidagi bazm» asarlari, 18 ta adabiy-tanqidiy maqolalari, 117 ta parchalar va qaydlari, 7 ta esdaliklari, 1 ta sayohatnomasi, 8 ta xatlari o'zbek tiliga ilk bor N.Berdiyev tomonidan o'girilngan.

Kitobdan o'rin olgan Pushkinning 25 ta she'rlari, «Yevgeniy Onegin»ning 50 bandi, «Xasis ritsar», «Mosart va Salyeri», «Tosh mehmon» dramatik asarlari, «Buyuk Pyotrning habashi», «Roslavlev» romanlari, «Kirjali», «Misr kechalari» povestlari N.Berdiyevdan oldin boshqa tarjimonlar tomonidan ham o'zbek tiliga o'girilgan edi.

Shunisi maqtovga sazovorki, N.Berdiyev o'z salaflarining, jumladan «Yevgeniy Onegin» she'riy romanini o'zbek tiliga o'girishgan Oybek va Mirzo Kenjabek kabi mahoratli tarjimonlarning beqiyos xizmatlariga yuksak baho bergan, ularning xayrli ishlarini baholi qudrat davom ettirishga ahd qilgan:

I.

Oson emas she'riy yo'l bilan
Roman yozish zamon haqida.
Bunday baxtga musharraf bo'lgan
Pushkin kabi daho aslida
«Rus hayotin badiiy qomusi»,

«Milliy ruhi, ongi, tuyg'usi»,
«Ishq dostoni» deb qadrlangan
Shoh asarga jahon bergan tan.
Xalq turmushi, orzu-o'ylari
Pok sevgiga zo'r samimiyat,
Jirkanch kibor olamga nafrat,
Shoir qalbin nozik kuylari
Unda erur to'liq mujassam,
Qancha takror o'qisang-da, kam.

II

Ruscha roman mazmunin anglab,
O'zbekchaga moslab o'girish –
Serdiqqat va o'ta murakkab,
Ham sharafli, hamda mas'ul ish.
Ilk bor chiqib Oybek, xayriyat,
Tarjimaga ayladi jur'at.
Puxta bilib ishning ko'zini,
Asar ruhin, har bir so'zini
O'z tiliga qildi u payvand.
Rus xalqining ishqiy dostoni
Bezab o'zbek nazm bo'stonin,
Kitobxonni etdi bahramand.
Tarjimada Oybek sabog'i
Bo'ldi qaynoq ilhom bulog'i.

III.

Shu orada o'tdi ko'p zamon,
Sayqal topdi didlar injudek.
Paydo bo'ldi yangi tarjimon –
Hassos shoir Mirzo Kenjabek.
Dadil borib Oybek yo'lidan,
Pushkinni kashf etdi yangidan.
Tarjimasi pishiq, ma'noli,
Vazni ravon – to'qqiz hijoli.
Rus yambining o'ynoq sadosi
Yangrar barmoq vaznida tiniq.
Jumlalari tugal va aniq,
Ohorlidir uslub, inshosi.
Qofiyalar bo'liq, jarangdor,
Tashbehlari nafis, jilodor.

IV

Darhaqiqat, Pushkin romanin
Bizda ikki tarjimasi bor.
Oybek, Mirzo xalqin, Vatanin
Til boyligin etishib iqror,
Quvonamiz – pushkinxonlarmiz,
Pushkinshunos, tarjimonlarmiz.
Kamina ham o'zbek elida
O'girmishdir ona tiliga
Buyuk shoir ash'orlaridan,
«Onegincha bandlar»idan ham,
Ular ushbu kitobdadir jam.
Ustozlarin asarlaridan
Saboq olib, minnatdor cheksiz:
Xayrli ish qolmaydi izsiz.

N.Berdiyev boshqa mualliflar tarjimalarida mavjud bo'lgan yutuqlardan o'rinli va unumli foydalangan, ular yo'l qo'ygan nuqsonlarni tuzatishga harakat qilgan, shu asosda o'zining yangi, mukammalroq tarjima variantlarini yaratishga muvaffaq bo'lgan. Tarjimon Pushkin asarlarining ruhi va mazmuni, badiiy xususiyatlarini, muallif mahoratini kitobxonlarga imkoni boricha aniq va to'liq yetkazib bergan. Bunga u badiiy iqtidordan tashqari o'zbek va rus tillarini mukammal bilish, matnni chuqur o'rganish, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik ilmlaridan yetarli xabardor bo'lish, mashaqqatli mehnat tufayli erishgan. Fikrimizning isboti sifatida Pushkinning A.P.Kernga bag'ishlangan mashhur she'ri (1825) ning N.Berdiyev tarjimasidagi birinchi ajoyib kupletini keltiramiz:

U ajib dam hamon esimda:
Ko'z oldimda bo'lding namoyon,
Bir lahzalik o'ydek hissimda,
Pok go'zallik dahosisimon.

Yoki Pushkinning odatda «Haykal» deb atashadigan she'ri(1836)ning boshlanishi N.Berdiyev tarjimasida shunday ravon berilgan:

Qo'l-la yaratib bo'lmas haykal qo'ydim o'zimga,
Unga kelar xalq yo'lin qoplay olmas o't-o'lan.
U yuksak ko'tarildi, bosh egmasdan ta'zimga,
Aleksandr ustunidan ham baland.

Bunday misollarni to'plamdan ko'plab keltirish mumkin. Albatta, zukko tarjimonshunoslarimiz va sinchkov kitobxonlarimiz N.Berdiyev bajargan tarjimalarni asliyati bilan solishtirib o'rganish asosida ularning fazilatlarini va boshqa tarjimalardan farqlarini ajratib olishga qodirdirlar, deb o'ylaymiz. N.Berdiyev amalga oshirgan tarjimalarni ilmiy-tanqidiy jihatdan atroflicha o'rganib, ularga xolisona baho berish tarjimashunos mutaxassislarning ishi hisoblanadi.

Buyuk Pushkin: «Tarjimonlar – ma'rifatning pochta xizmatidagi otlari», degan edi. Darhaqiqat, N.Berdiyev tomonidan «A.S.Pushkin. Haykal» to'plamining nashr etilishi buyuk yozuvchi ijodini o'zbek kitobxonlari orasida targ'ib etishga, Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi xalqlari va adabiyotlari o'rtasidagi madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash ishiga imkon beradi.

Mazkur kitobning nomi «Haykal» deb atalganligi bejiz emas. U Pushkinning asrlar davomida avlodlar qalbida abadiy yashab kelayotgan mashhur she'ri nomiga taqlidan tanlangan bo'lib, ramziy ma'noda shoirning butun ijodi mazmun-mohiyatiini o'zida mujassam etadi.To'plamning nashr etilishi Termiz shahrida buyuk rus shoiriga qo'yilgan munosib haykal bo'ldi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Buyuk A.S.Pushkin asarlarida madh etilgan yuksak umuminsoniy, umriboqiy g'oyalar doimo barkamol inson tarbiyasi uchun xizmat qilib kelgan va

shunday bo‘lib qoladi

Kitobdagi tarjimalar badiiy va grammatik jihatlardan puxta, savodli, yuksak saviyada bajarilgan.

Kitobga kiritilgan asarlar janrlar bo‘yicha va xronologik tartibda joylashtirilgan, tegishli izohlar va sharhlar bilan ta’minlangan.

Kitobga filologiya fanlari doktori, professor P.O‘.Bakirov mas’ul muharrirlik qilgan, dotsentlar O.T.Xo‘janova, S.K.Turobova va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Surxondaryo viloyati bo‘limi mudiri M.Ollomurodov ijobiy taqrizlar yozishgan.

A.S.Pushkin asarlari tarjimalaridan iborat to‘plamning 300 nusxada nashr etilganligi, albatta, yetarli emas. Kitobni ko‘p nusxada qayta nashr etish va respublikamizning boshqa viloyatlaridagi ko‘p ming sonli adabiyot shinavandalariga ham yetkazish zarur, deb hisoblaymiz.

Rezyume. Mazkur maqolada 2025-yilda Termiz davlat universiteti nashriyotida nashr etilgan «A.S.Pushkin. Haykal» nomli to‘plam tahlil qilingan. To‘plamga buyuk rus yozuvchisining 2000–2025-yillar mobaynida falsafa fanlari nomzodi, dotsent Norali Berdiyev tomonidan rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan turli janrlardagi 363 asarlari kiritilgan. Unda to‘plamga kiritilgan tarjimalarning mazmuni va sifati, shuningdek tarjimonning mahorati haqida so‘z yuritilib, ularga ijobiy baho berilgan.

Resume. The article analyzes the collection «A.S.Pushkin. Haykal» («Monument»), published in 2025 by the publishing house of Termez State University. The collection includes 363 works by the great Russian writer in various genres, translated from Russian into Uzbek by Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor Norali Berdiev during the years 2000-2025. It talks about the content and quality, as well as the translator's skill, and gives them a pozitive assesment.

Резюме. В статье проанализирован сборник «A.S.Pushkin. Haykal» («Памятник»), изданный в 2025 году в издательстве Термезского государственного университета. В сборник включены 363 произведений великого русского писателя в различных жанрах, переведённых в течении 2000–2025 годов с русского языка на узбекский язык кандидатом философских наук, доцентом Норали Бердиевым. В ней речь идёт о содержании и качестве, а также о мастерстве переводчика, дана им положительная оценка.